

“SIROJ UL-MUSLIMIN” ASARINING NASHRLARI XUSUSIDA*Hamrayeva Nargiza Hasan qizi**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi**Ilmiy rahbar: Muqumova Dilafruz (PhD)**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Siroj ul-muslimin” asarining hozirgacha nashr qilingan nusxalari, ularning tayyorlanish tamoyillari va matniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Turli yillardagi nashrlar o'rtasidagi farqlar hamda matnga kiritilgan o'zgarishlar asosida asarning ilmiy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot “Siroj ul-muslimin” asari nusxalarini o'rganish va baholashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Asar nusxalari, nashrlar, matniy xususiyatlar, ilmiy nashr, matnshunoslik.

Annotation: This article analyzes the editions of the work “Siroj ul-muslimin” published to date, their preparation principles, and textual features. Based on the differences between editions from various years and the changes introduced into the text, the scientific significance of the work is highlighted. The research serves as an important source for studying and evaluating the copies of “Siroj ul-muslimin”.

Key words: Manuscript copies, editions, textual features, scholarly edition, textology.

Аннотация: В данной статье анализируются издания произведения «Сирож ул-муслимин», опубликованные на сегодняшний день, принципы их подготовки и текстологические особенности. На основе различий между изданиями разных лет и внесённых в текст изменений раскрывается научная значимость произведения. Исследование служит важным источником для изучения и оценки списков «Сирож ул-муслимин».

Ключевые слова: Списки произведения, издания, текстологические особенности, научное издание, текстология.

Alisher Navoiy o'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi, o'zbek she'riyati mulkining sultoni ekanligi barchaga ayon. Biroq uning boy ijodiga teranroq nazar tashlansa, Hazrati Navoiyning nafaqat ulug' shoir, balki yetuk islom olimi sifatidagi siymosi ham yaqqol namoyon bo'ladi. Zero, Navoiy asarlarining asosiy manbalari Qur'oni karim, sunnat, islom tasavvufi va islomiy hikmatga tayanadi. Shoir butun hayoti va ijodini Qur'on va hadisi shariflarda bayon etilgan hukmlar asosida barpo etgan komil musulmon sifatida namuna bo'la oladi. U Qur'on tilovati va unga amal qilishni inson kamolotining muhim sharti deb biladi.

Ana shu e'tiqod va ma'naviy mas'uliyat natijasida Alisher Navoiy Qur'oni karim ta'sirida bir qator diniy-ma'rifiy asarlar yaratdi. Ular orasida "Siroj ul-muslimin" risolasi alohida o'rin tutadi. Mazkur asarda shoir shariat ahkomlari va Islom asoslarini nazmiy uslubda, lo'nda va tushunarli tarzda bayon etishga intilgan.

Umuman olganda, o'zbek ulamolari hamda adib-u shoirlarining turli islomiy ilmlarga, xususan, fiqh sohasiga qo'shgan hissalarini beqiyosdir. Ularning asarlari ilmiy qimmatini bilan birga, yuksak ma'naviy meros sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaralganda, Hazrati Alisher Navoiyning "Siroj ul-muslimin" risolasi o'zbek adabiy va islomiy tafakkur tarixida nodir va bebaho asar sifatida alohida ajralib turadi. "Siroj ul-muslimin" ("Musulmonlar nuri") asari sof diniy yo'nalishda bo'lib, islom dini ahkomlarini yoritishga bag'ishlangan. Asar hijriy 905, milodiy 1499–1500-yilda masnaviy shaklida yozilgan bo'lib, hajman 208 baytdan iborat¹. "Siroj ul-muslimin"da muallif har bir oddiy musulmon bilishi zarur bo'lgan aqidaviy va fiqhiy masalalarni yoritishni maqsad qilgan. Asarning yozilishiga turli sabablardan biri – shoirning kundalik hayotda musulmonlarga kerak bo'ladigan ilmni yetkazish istagi, shuningdek, tasavvuf ahli bilan bog'liq tushunmovchiliklarni bartaraf etish zarurati bo'lgan. Islomning besh rukni – iymon, namoz, ro'za, zakot va haj amallari qisqacha tarzda o'zbek tilida bayon etgan. Asar 3 qismdan iborat. Basmala bobi, kitobning yozilish sababi bayon etilgan bob, turli diniy mavzularga bag'ishlangan 25 bob va xotimadan iborat.

Muqaddima ya'ni basmala bobi o'zbek mumtoz adabiyotida asarlarga qo'yilgan talablar, ya'ni "da'bi tasnif" (tasnif odobi)ga amal qilingan holatda "vojib ul-tasnif" – tasmiya, hamd, na't hamda "joiz ul-iste'mol" - "Kitob nazmining sababi" deb nomlangan qismlardan tashkil topgan.

"Siroj ul-muslimin" ilk bor kirill alifbosida Navoiy asarlari to'plami tarkibida nashr qilingan, keyinchalik esa alohida kitobcha shaklida ham chop etilgan. Xususan, navoiyshunos olim Alibek Rustam tomonidan tayyorlangan nashrni har tomonlama yetuk nusxa deb baholash mumkin. Shu bilan birga, ilgari chop etilgan nashrlarda berilgan qisqa izohlar oddiy kitobxonlar uchun asarni tushunishga yetarli bo'lmagan. Shu sababli, mazkur ilmiy merosdan keng jamoani bahramand qilish maqsadida asar zamonaviy tilda nashrga tayyorlandi va unga batafsilroq sharhlar kiritildi.

"Siroj ul-muslimin" asari bugungi kunda uch muhim qo'lyozma nusxada saqlanib, xorijdagi milliy kutubxonalarda mavjud. Ularning har biri asarning tarixiy va badiiy merosi sifatida alohida ahamiyatga ega:

"1. Turkiyaning To'pqopi muzeyi, Revan kutubxonasi 808-raqam ostida saqlanayotgan nusxa. Ushbu qo'lyozma Navoiy kulliyoti tarkibida saqlanadi. Fotonusxada 151–153-sahifalarda joylashgan bo'lib, asarning eng qadimgi va asosiy manbalaridan biri sifatida tanilgan.

¹ Sirojiddinov Sh. va boshqa. Navoiyshunoslik (1-kitob). Darslik. – Toshkent, 2019.

2. *Istanbuldagi Sultoniya kutubxonasining Fotih fondida 4056-raqam ostida saqlanayotgan nusxa. Navoiy kulliyotining ushbu nusxasi ham qo'lyozma shaklida bo'lib, asar matnini tarixiy jihatdan tushunish va tadqiq qilishda muhim manba hisoblanadi.*

3. *Parij milliy kutubxonasi 316-raqam ostida saqlanayotgan nusxa. Ushbu qo'lyozma 932–933/1526–27 yillarda Hirotida kotib Aliy Xirojijiy tomonidan bitilgan. Navoiy kulliyoti tarkibida joylashgan bo'lib, badiiy jihatdan yuqori sifatga ega bo'lgan mo'tabar nusxa sifatida e'tirof etiladi. Fotonusxada asar 19–21-sahifalarda saqlangan.*²

Parij nusxa qo'lyozmasi hijriy 932–933 (milodiy 1526–1527) yillarda Hirot shahrida mashhur kotib Aliy Xirojijiy tomonidan ko'chirilgan. Bu holat asarning Navoiy vafotidan keyingi davrda ham katta e'tibor bilan nusxalanganini, uning ilmiy va ma'naviy ahamiyati yuqori baholanganini ko'rsatadi. Qo'lyozmaning puxta tayyorlanganligi, sahifalarning tartibli joylashtirilishi hamda bezak unsurlarining uyg'unligi mazkur nusxani nafaqat matniy, balki badiiy manba sifatida ham qimmatli qiladi. Biz foydalanayotgan fotonusxada “Siroj ul-muslimin” asari ushbu kulliyotning 19–21-sahifalarini egallagan. Asarning kulliyot tarkibida joylashtirilishi Navoiy ijodining diniy-ma'rifiy yo'nalishdagi asarlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Parij nusxasi matnning to'liqligi va tartibliligi bilan ajralib turib, “Siroj ul-muslimin” risolasini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

² Hasanxon Yahyo Abdulmajid, Husaynxon Yahyo Abdulmajid. Navoiydan chu topqaylar navoye. – Toshkent: “Hilol-nashr, 2023. – 240. B.



“Siroj ul-muslimin” Parij nuxsasi

Uch nusxa ham xorijdagi milliy kutubxonalarda saqlanmoqda. Shunidek, ularning fotonusxalari O‘zbekiston Respublikasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat muzeyi arxivida mavjud. Nusxalarni solishtirish natijasida ular orasida deyarli farq topilmadi, faqat ayrim joylarda juz’iy tafovutlar uchradi va ular ilmiy-tanqidiy matn tayyorlash jarayonida alohida ko‘rsatildi. Shu orqali asarning matni ilgari nashrlardagi ba’zi tushunarsiz yoki kamchilikka ega joylardan tozalanib, ishonchli va mukammal holatga keltirildi.

Ushbu uch nusxa Siroj ul-muslimin asarining tarixiy manbalari sifatida noyob ahamiyatga ega bo‘lib, ular orqali asarning yaratilish davri, matniy tuzilishi va badiiy jihatlari haqida aniq ma’lumot olish mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, "Siroj ul-muslimin" risolasi nafaqat Alisher Navoiy ijodidagi nodir badiiy asarlardan biri, balki o'zbek madaniyati va islomiy ilmlar tarixida ham muhim o'rin egallaydi. Asarning saqlanayotgan xorijdagi uch qo'lyozma nusxasi – To'pqopi muzeyi, Istanbul Sultoniya kutubxonasi va Parij milliy kutubxonasi – uning tarixiy va badiiy meros sifatida qadriyatini oshiradi. Bu nusxalar Navoiy ijodining turli davrlarda shakllanishini, fiqhiy mavzularni yoritishdagi yondashuvini va badiiy ifodasini o'rganishga imkon beradi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Siroj ul-muslimin asari faqat ilmiy nuqtai nazardan emas, balki o'quvchiga qulay, lo'nda va tushunarli shaklda Islom fiqhining asoslarini yetkazish borasida ham noyob manba hisoblanadi. Qo'lyozma nusxalarining saqlanishi va ularning tafsilotlarini o'rganish asarning tarixiy aniqligi, matniy barqarorligi va badiiy jihatdan mukammalligini tasdiqlaydi. Shu bois, asarni chuqur o'rganish va uni keng ommaga yetkazish ishlari nafaqat ilmiy, balki ma'naviy merosni saqlashda ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sirojiddinov Sh. va boshqa. Navoiyshunoslik (1-kitob). Darslik. – Toshkent, 2019.
2. Hasanxon Yahyo Abdulmajid, Husaynixon Yahyo Abdulmajid. Navoiydan chu topqaylar navoye. – Toshkent: Hilol-nashr, 2023. – 240. B.
3. Navoiy Alisher. Arba'in. Siroj ul-muslimin. Munojot. Risolai tiyr andoxtan. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 2000. 16-jild. –261-308. B.
4. Alisher Navoiy. Siroj ul-muslimin. – Toshkent: Fan, 2000.